



## JIZZAX VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

*2020- yil 1- avgust holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*



## Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*


*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*

*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*

## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



### Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

## Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

10 667



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

1 101



Oilaviy korxonona

145



Unitar korxonona

4 738



Xususiy korxonona

20



Aksiyadorlik jamiyati

286



Boshqa korxonalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat  
birlik



xususiy korxonona  
birlik




### Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- avgust holatiga ko'ra)



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



### Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; – aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar- iyul oylarida, birlikda)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar- iyul oylarida)




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020- yil yanvar- iyul oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2020- yilning yanvar-iyul oylarida 2 333 tadan ortiq korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 1 573 ta, xususiy korxonalar – 289 ta, oilaviy korxonalar – 319 ta, muassasalar – 39 ta va boshqalar – 113 tani tashkil etdi.

## Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


(2020-yil 1-avgust holatiga koʻra, birlikda)




### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




### Mikrofirmalar




### Kichik korxonalar




### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




### Oilaviy korxonalar



### Faoliyat koʻrsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



### Xususiy korxonalar






## Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **13,8** foizga oshdi




### Kichik tadbirkorlik subyektlari




**13,5** foizga oshdi



### Mikrofirmalar




### Kichik korxonalar




### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



**14,8** foizga oshdi



### Oilaviy korxonalar




**40,9** foizga oshdi




### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **8,4** foizga oshdi



### Xususiy korxonalar



**1,2** foizga oshdi




## Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **21,5** foizga oshdi




### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




**21,4** foizga oshdi



### Mikrofimlar




### Kichik korxonalar



### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**27,6** foizga oshdi



### Oilaviy korxonalar




**2,3** martaga oshdi




### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **90,0** foizni tashkil etdi




### Xususiy korxonalar




**5,6** foizga oshdi




## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




### Mikrofirmalar




### Kichik korxonalar




### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




### Oilaviy korxonalar




### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



### Xususiy korxonalar



## Oilaviy korxonalar soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra 1 101 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 367 taga yoki 150,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 030 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 334 taga yoki 148,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar- iyul oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 319 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 125 taga yoki 164,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra 10 667 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 126 taga yoki 124,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 10 287 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 037 taga yoki 124,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar- iyul oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 573 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 228 taga yoki 12,7 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.



## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra 197 tani tashkil etib, ulardan 190 tasi yoki 96,4 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 17 taga yoki 109,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar- iyul oylarida Jizzax viloyatida 14 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	<b>4 110</b>	<b>4 986</b>	<b>5 987</b>	<b>8 250</b>	<b>10 287</b>
<i>shu jumladan:</i>					
<b>Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi</b>	531	796	1 087	1 402	1 837
<b>Sanoat</b>	772	999	1 215	1 663	1 909
<b>Qurilish</b>	594	717	828	1 168	1 490
<b>Savdo</b>	1 024	1 161	1 388	2 064	2 793
<b>Tashish va saqlash</b>	241	305	337	435	475
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	241	325	383	475	563
<b>Axborot va aloqa</b>	41	57	57	90	103
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	43	60	80	114	134
<b>Boshqa turlar</b>	623	566	612	839	983

## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	<b>75</b>	<b>72</b>	<b>100</b>	<b>173</b>	<b>190</b>
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3	4	14	28	28
Sanoat	59	56	61	95	103
Qurilish	3	2	3	10	9
Savdo	5	4	12	22	28
Tashish va saqlash	2	3	3	4	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	-	1	5	4
Axborot va aloqa	1	1	1	4	4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	-	1
Boshqa turlar	2	2	5	5	9

## Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)





**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>190</b>	<b>122</b>	<b>68</b>
<b>Jizzax shahri</b>	<b>67</b>	<b>49</b>	<b>18</b>
<i>tumanlar:</i>			
<b>Arnasoy</b>	<b>7</b>	<b>5</b>	<b>2</b>
<b>Baxmal</b>	<b>8</b>	<b>5</b>	<b>3</b>
<b>G'allaorol</b>	<b>17</b>	<b>11</b>	<b>6</b>
<b>Sharof Rashidov</b>	<b>17</b>	<b>9</b>	<b>8</b>
<b>Do'stlik</b>	<b>3</b>	<b>1</b>	<b>2</b>
<b>Zomin</b>	<b>16</b>	<b>9</b>	<b>7</b>
<b>Zarbdor</b>	<b>3</b>	<b>2</b>	<b>1</b>
<b>Zafarobod</b>	<b>8</b>	<b>2</b>	<b>6</b>
<b>Mirzacho'l</b>	<b>2</b>	<b>-</b>	<b>2</b>
<b>Paxtakor</b>	<b>9</b>	<b>8</b>	<b>1</b>
<b>Forish</b>	<b>22</b>	<b>17</b>	<b>5</b>
<b>Yangiobod</b>	<b>11</b>	<b>4</b>	<b>7</b>

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Jizzax shahrida 67 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 35,3 %), Forish 22 ta (11,6 %), Sharof Rashidov 17 tani (8,9 %), G'allaorol 17 ta (8,9 %), Zomin 16 ta (8,4 %), Yangiobod 11 ta (5,8 %) hamda Paxtakor tumanlarida 9 tani (4,7 %) tashkil etadi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Jizzax shahri (29,8 %), Sharof Rashidov (16,1 %), Zomin (8,1 %), G'allaorol (7,9 %), Forish (7,0 %), Baxmal (6,0 %), Zarbdor (4,7 %), Paxtakor (4,2 %), Do'stlik (4,1 %), Mirzacho'l (3,6 %), Arnasoy (3,1 %), Zafarobod (3,1 %) va Yangiobod (2,3 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil yanvar- iyul oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Jizzax shahrida (22,1 %), Sharof Rashidov (12,6 %), G'allaorol (9,3 %), Zomin (8,1 %), Forish (7,8 %), Baxmal (7,4 %), Zarbdor (6,5 %), Do'stlik (5,4 %), Paxtakor (5,4 %), Zafarobod (4,3 %), Mirzacho'l (3,7 %), Arnasoy (3,7 %) va Yangiobod (3,7 %) tumanlari ulushiga ega.



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

## Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) va Jizzax viloyati statistika boshqarmasining [www.jizzaxstat.uz](http://www.jizzaxstat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Jizzax viloyati statistika boshqarmasi**  
**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**  
**Tel.: 72 221-51-24**